

QADIMGI TURKIY TILNING FONETIKASI.

Temiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

4-bosqich talabalari

Abdurayemova Nozima

Jummayeva Nurshoda

O'zbek tili kafedrasida o'qituvchisi

Iqbol Shamsuddinova

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi turkiy tilning fonetikasi unda tovushlar tizimi va unli hamda undosh tovushlarni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar : fonetika, qadimgi turkiy til, unli tovush, undosh tovush, singormanizm.

Ma'lumki, qadimdan bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarni o'rganish uchun ham turkiy tilning tarixiy fonetikalarini o'rganish zarur. Turkiy tillarning tarixiy fonetikasini o'rganishda, avvalo, birlamchi cho'ziq unilarning grafik, fonologik xususiyatlarini o'rganish zarur. Qadimgi turkiy tilde 8 ta unli fonema bo'lib, ular bir biridan qatori, tor kengligi, lablanish lablanmasligiga ko'ra farq qiladi. Bulardan –a, ы, o, u orqa qator a, e, I, Ы, u old qator unilari. Keng unilar a, e, o, o: tor unilar ы, I, u unilari. Qadimgi turkiy tilning unli fonemalari munosabatidagi bunday miqdoriy tenglik ularning sistemasini kub shakliga ifodalashga imkon beradi. Kubning yuqori qismida tor unilar quyi qismida keng unilar, old qismida old qator unilari, orqasida orqa qator unilari, o'ng tomonida lablangan va chap tomonida lablanmagan unilar berildi.

Demak a-lablanmagan, keng va orqaqator e-lablanmagan keng yoki old qator unidir. Bu unlining talaffuzi qozoq va qirg'iz hamda ko'pgina turkiy tillarda, o'zbek tilining singarmonizmi, lahja va simvollarda saqlangan.

Tatar va boshqird tillarida bu unli yanada orqaga siljishi va kengayishi natijasida :e ga aylangan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ba'zi o'rinlarda oldingi tomon a ga yaqinlashgan, ayrim hollarda orqaga tomon kengayib e ga aylangan. Qadimgi turkiy

tillardagi a unlisi esa hozir torayib ko'pgina turkiy tillarda ,jumladan o'zbek tilida birinchi bo'g'inda e ga aylangan.

Misollar: Adag' (oyoq),qagan(xoqon),anda(unda),ara(ora),qura(qora) at(ot) et(et go'sht) ab(ov) eb(uy) ar(alda) er(er) ash(osh) esh(esh)

ЫI unlisi lablanmagan tor va orqa qator I ham lablanmagan tor lekin old qator unlidir. bu ikki unli fonema hozirgi o'zbek adabiy tilida va singarmonizmsiz lahja va shevalarda ы ning oldinga siljishi natijasida konvergensiya uchragan , ya'ni bir qism (i) ga aylangan.

Ammo o'zbek tilining singarmonizmi lahja va shevalarda hamda boshqa turkiy tillarda o'z holicha saqlangan. Qadimgi turkiy tilda hamorqa qator ы bilan old qator i ikki mustaqil fonemadir.

O unlisi lablangan ,keng va orqa qator :o ham lablangan keng old qator unlidir .Qadimgi turkiy tilda orqa qator o bilan alohida 2 fonemadir .

ol(u) ol(ul)

ot(olov) ot(ut)

U unlisi lablangan tor va old qator unlidir . Bu unililarning ham holati u va ы alohida fonemadir.

tu(tus) TU(tuk)

ur(ur) Ur(pufla)

Hozirgi o unlisi qadimgi turkiy tilda a unlisini ifodalaydi .

Qadimgi turkiy tilde lab undoshlari : ь m p

Sirg'aluvchi lab undoshi F yo'q B undoshi lab –lab portlovchi, jarangli,shovqinli undosh bo'lib, so'z boshida ham o'rtasida ham ,oxirida ham uchraydi .

M undoshi lab-lab , portlovchi , sonor (shovqinsiz) M undoshi b dan jarangsizligi bilan farq qiladi.

V undoshi faqat uyg'ur yodnomalarida bor . V faqat so'z o'rtasi va oxirida keladi.

Tanglay uyg'unligi so'zdagi tovushlarning bir biriga va qo'shimchalarning o'zakka qatorda va qalin ingichkalikda moslashuvidir.

Yashымqa (yoshimda)

elig(elni davlatni)

Lab uyg'unligi birinchi bo'g'indagi unliga keying bo'g'indagi unlining yoki o'zakdagi unliga qo'shimchadagi unlining lablanish jihatdan moslashuvi .

Xulosa qilib aytish mumkunki qadimgi turkiy til fonetikasi hozirgi o'zbek tili fonetikasidan farq qiladi shu jumladan tovushlar soni va ularning o'rniga ko'ra farqlanadi.

Adabiyotlar

1 G'.Abdurahmonov A.Rustamov Qadimgi turkiy til . O'qituvchi 1982-yil

2.I.Azimov , M.Rahmatov ,Qadimgi turkiy til .Toshkent 2005-yil